

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон
қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт,
филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик
диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия
этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2023-2/4
Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издаётся с 2006 года**

Хива-2023

Бош мұхаррир:

Абдуллаев Икрам Исакандарович, б.ф.д., проф.

Бош мұхаррир ўринбосари:

Хасанов Шодлик Бекпұлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир ҳайати:

Абдуллаев Икрам Исакандарович, б.ф.д., проф.

Абдуллаев Баҳром Исломович, ф-м.ф.д.

Абдуллаев Равшан Бабажонович, тиб.ф.д., проф.

Абдуҳалимов Баҳром Абдураҳимовиҷ,
т.ф.д., проф.

Ағзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.

Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.

Аметов Яқуб Идрисович, д.б.н., проф.

Бабаджанов Хүшнұт, ф.ф.н., проф.

Бекchanов Дағрон Жұманазарович, к.ф.д.

Буриев Хасан Чұтбаевич, б.ф.д., проф.

Ганджаева Лола Атанаzаровна, б.ф.д., к.и.х.

Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.

Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.

Дұсчанов Баҳтиёр, тиб.ф.д., проф.

Ибрағимов Баҳтиёр Тұлғанович, к.ф.д., акад.

Жүгенисов Танғырберген Исаевич, б.ф.н., доц.

Жұманиәзов Зохид Отабоевич, ф.ф.н., доц.

Жұманов Мұрат Арапбаевич, д.б.н., проф.

Кадирова Шахноза Абдуҳалимовна, к.ф.д., проф.

Каримов Улугбек Темирбаевич, DSc

Құтлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.

Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.

Майл C. Эңжел, б.ф.д., проф.

Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.

Мирзаев Сирожиддин Зайньевич, ф-м.ф.д., проф.

Мирзаева Гүлнара Сайдарифовна, б.ф.д.

Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.

Рахимов Рахим Атажанович, т.ф.д., проф.

Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д.,
проф.

Рашидов Негмурод Элмурадович, б.ф.н., доц.

Рұзибоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.

Рұзметов Баҳтияр, и.ф.д., проф.

Садуллаев Азимбай, ф-м.ф.д., акад.

Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.

Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.

Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.

Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.

Сотипов Гойинназар, қ/х.ф.д., проф.

Тожибаев Комилжон Шаробитдинович,

б.ф.д., академик

Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.

Холматов Баҳтиёр Рустамович, б.ф.д.

Чұпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.

Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.

Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.

Эшчанов Рузумбай Абдуллаевич, б.ф.д., доц.

Үразбоев Гайрат Үразалиевич, ф-м.ф.д.

Үрзебоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.

Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.

Ҳасанов Шодлик Бекпұлатович, к.ф.н., к.и.х.

Худайберганова Дурдана Сидиқовна, ф.ф.д.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№2/4 (98), Хоразм
Маъмун академияси, 2023 й. – 207 б. – Босма нашрнинг электрон варианти -
<http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм
Маъмун академияси

**МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

Abduvokhidova H. Translation of agricultural terms	5
Artikova N.S. Dialogik nutq to‘liqsiz gaplarni yaratuvchi omil sifatida	7
Artikova N.S. Methods of research of binuclear non-verbal sentences	10
Atajanova N.F. Xorazmlik shoiralar ijodidagi mumtoz adabiy an’analarning davom ettilishi xususida	14
Azizova M. Comprehensive understanding english language in ESP classes	18
Babakulova L.R. Terminology and translation problems in teaching English	21
Bobojonova N.J. Categorization in english cognitive linguistics	23
Dalieva M.X. Semantic and cognitive approach to the modern english terminology	26
Daminov N.K. Formation of resistance to stress in the process of simultaneous interpreting	28
Davletova D.N. Fe’lli kollokatsiya (turg‘un birikma) tushunchasi va uning ingliz va o‘zbek tillarida ifodalanishi	31
Eranova Z.A. Description of human professional activity in English and Uzbek phraseology	35
Eshniyozova G.H. Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida qo’llanilgan badiiy san’atlaring lingvopoetikasi	37
Haydarov A.A., Xayrullayeva G. Turli sistem tillarda so’z ma’nolari kuchaytirishning leksik vositalari	39
Jalilova L.J., Axmedova M.F. J.K. Roulingning “Garri Potter” asarida yosh psixologiyasi	42
Kadirova A.Kh. Qualificattion and skills required of a simultaneous interpreter	45
Kasimova S.M. About the mechanisms that provide understanding of the original text while speaking text in the target language	47
Khaydarova L. The description of social life and the usage of syntactic stylistic devices in the novel “Hard times” by Charles Dickens	50
Mirabdullayeva S., Abduvokhidova H. Ingliz va o‘zbek tillarida metaforalaring tavsifi, ishlatalishi va ilmiy ahamiyati	53
Narzulaeva D.B. Miracles of the Holy Koran	55
Niyazova M.Kh., Tuxtayeva M.A. The use of proverbs in the speech of characters by english and uzbek writers	58
Niyazova M.X., Temirova M. Dunyo tilshunosligida frazeologik birliklarni o’rganishning nazariy asoslari	60
Osmanov M.T. Cognitive and linguistic factors in improving reading comprehension on the base of illustrated texts	62
Polvannazirova S.X. Kontrastiv lingvistika va tarjimaning o’zaro munosabati	64
Qarshiyeva Sh.T., Yuldashev A.A. O‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning qiyosiy etimologiyasi	67
Qobilova N.S., Barotova N.Sh. Linguistic and cognitive features of negative attitudes in english and uzbek languages	69
Qobilova N.S., Nurullayeva U.B. Frazeologik birliklar xalqning milliy-madaniy xususiyatlari oynasi sifatida	72
Qodirova H.X. Ingliz va o‘zbek tillarida soxta diskursning pragmatik parametrlari	76
Qosimova F.X., A’zamjonova M.S. Ingliz va o‘zbek lingvokulturologiyasida “Baxt” konsepti	78
Ochilova N. Tarjimada sinonimik qatordagi so’zlardan foydalanish muammolari	81
Raximova M.A. Termin va atamalar haqida ayrim mulohazalar	85
Raxmatova M.M., Aslonova Sh.Z. Inson kommunikatsiyasining hosil bo`lishi jarayonida diskursning roli	88
Saidova M.U., Jamolova M.B. The nature of mythology in literature	91
Saidova M.U., Zabieva V.Kh. Closer view to task-based language teaching	94
Saidova Z.B. Normurod Norqobilov qissalaridagi metaforaning lisoniy xususiyatlari	98
Shirinqulova Sh.M. Zamonaliv atamashunoslik, uning nazariy asoslari va tibbiy atamashunoslikni shakllantirish	102
Shodiyeva M.N. Xitoy tilida dehqonchilikka oid leksikalar va ularning xususiyati	104
Toirova U.S. Normurod Norqobilovning “Dashtu dalalarda” asarida bo’ri zoosemasi	107

INSON KOMMUNIKATSIYASINING HOSIL BO`LISHI JARAYONIDA DISKURSNING ROLI

M.M. Raxmatova, Phd, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Sh.Z. Aslonova, magistrant, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson muloqotida diskursning yaralishi, uning turlari va turli sohalarda uni o`rganishga bo`lgan turlichay yondashuvlar haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, diskurs tahlili sohasining tarixiy bosqichlari va uning turlari, shu sohada olib borilgan tadqiqotlarning ahamiyati va turlarining bayonotini o`z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Diskurs, kommunikatsiya, kontekst, matn lingvistikasi, diskurs tahlili, janr, monologik, madaniylik, o'qimishlilik, notiqlik, savodxonlik

Аннотация. В данной статье рассматривается создание дискурса в человеческом общении, его виды и разные подходы к его изучению в разных областях. Кроме того, он включает в себя констатацию исторических этапов анализа дискурса и ее видов, значимости и видов исследований, проводимых в этой области.

Ключевые слова: дискурс, коммуникация, контекст, лингвистика текста, анализ дискурса, жанр, монология, культура, грамотность, красноречие

Abstract. This article discusses the creation of discourse in human communication, its types and different approaches to its study in different fields. In addition, it includes a statement of the historical stages of discourse analysis and its types, the importance and types of research conducted in this field.

Key words: Discourse, communication, context, text linguistics, discourse analysis, genre, monologic, culture, literacy, eloquence, literacy

Dastavval, diskurs — so'zlashuv davomida ishlab chiqariladigan til segmentlarini ifodalaydi hamda insonlar bir-birlari bilan suhbatga kirishganlarida yuzaga keladigan jarayon sanaladi. Diskurs nutqda tilning kichik segmentlaridan tashkil topgan ancha katta yoki kichikroq gaplar tarkibida hosil bo`lib, asl ma'no gap ortida yashiringan bo`ladi. Turli xil maqsadlarda shakllangan tilning og'zaki yoki yozma shakldagi har qanday misollarda diskurs shakllanishi mumkin va u hech qachon gap chegarasida chegaralanib qolmaydi. Boshqacha so'z bilan aytganda diskurs og'zaki va yozma nutqdagi har qanday ma'no anglatuvchi birliklardan tashkil topgan gaplar hisoblanadi[1].

Samarali chet til o'qitishda diskurs va kontekst tushunchalarini bilib olish muhim hisoblanadi. Shu o'rinda matn va kontekst tushunchalarini ham tahlil qilish o'rini hisoblanadi. Ba'zida bu ikkala tushunchani bir biridan farqlash qiyinroq bo'ladi chunki matnda ham kontekstda ham bir xil belgilarni muhim ma'lumotni belgilab kelishi mumkin. Bunga yaxshi misol sifatida Ingliz tilidagi ko'rsatish olmoshlarining qo'llanishini keltirish mumkin (*this, that*).

1. Child (pointing at food on the plate in front of him): *What's this?*
2. *Claude thinks we should postpone the picnic. What do you think of this?*

Birinchi misolda *this* ko'rsatish olmoshi bolaning likopchasidagi mevaga ishora qiladi. Ifodalanuvchi narsa aniq chunki bola aytayotgan narsani jismoniy harakat bilan ko'rsatib turipti. Bunday holatni daiktik (inglizcha "deictic", ya'ni biror narsani to'g'ridan to'g'ri ko'rsatish) yoki situatsion holat deb ifodalaniladi va tavsiflanuvchi obyekt kontekstning bir qismi hisoblanadi. Ikkinci keltirilgan misolda esa *this* ko'rsatish olmoshi davom etayotgan fikrdan oldin ifodalangan fikrga ("we should postpone the picnic") ishora qilyapti. Bu turdag'i tavsif esa anaforik (ya'ni oldindagi fikrga ishora qilish) yoki matnga asoslangan tavsif hisoblanadi chunki tavsiflanayotgan fikr oldingi matnda mavjud[2]. Til shakllari orqali shakillantirilgan ushbu misollarda til o'z funksiyasini ko'rsatgan ya'ni nazarda tutilayotgan umumiylar ma'no bilan til shakllari birlgilikda o'z vazifasiga ko'ra diskurs hosil qilmoqda. Bundan tashqari, pragmatik tahlil foydanilayotgan tildagi o'zgarishlarga ham katta ahamiyat beradi. Masalan, birinchi misolda so'zlovchi uyda gapirovayotgan

yosh bola va bunday holatda “*bu nima?*” (*what's this*) savoli muqobildir. Ammo kechki ovqatga taklif qilingan mehmon shu uslubda savol bersa bu mezbonga nisbatan kamsitadigan ohangda bo'lishi mumkin, shuning uchun mehmon boshqacha ancha muloyimroq usulda “*what's this new dish you are serving?*” (*keltirayotgan bu yangi taomingiz qanaqa?*) kabi murojaat qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Suhbatdoshga bog'liq bo'lgan yosh va ijtimoiy aloqalar kabi omillarga qo'shimcha tarzda muloqotdagi xushmuomalalilik va moslik kabi omillar ham pragmatik maqsadga muvofiq bo'lishi va har bitta shaxsning muloqot qobiliyatining asosiy qismi bo'lishi lozimdir. Misol uchun “*Come tonight, I'm going to make a party*” ushbu taklif ma'nosidagi murojaat kishining do'sti yoki yosh jihatdan teng bo'lgan insonlarga nisbattan ishlatiladi va ushbu turdag'i murojaatdan ijtimoiy holati yuqoriroq bo'lgan insonlarga nisbattan ishlatish nojoiz hisoblanadi bu holatda “*Can you visit to my place for the party tonight?*” ko'rinishida murojaat qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun, til o'qitishda diskurs hamda umumiy kontekstning qanday bog'lanishiga katta e'tibor qaratish zarurdir. Inson muloqoti shaxsiy va ijtimoiy darajalarda ko'plab turli maqsadlarni amalga oshiradi. Insonlar kundalik hayotida turli xil ma'lumotlar, g'oyalar, ishonch, his-tuyg'u va munosabatni ifodalovchi turli xil fikrlarni bir birlari bilan muloqot jarayonida bo'lishishadi va ushbu moloqotlar mazmuni ijtimoiy hayotda egallagan o'rniga mos tarzda tuziladi. Boshqa bir yangi til o'rganilayotganda biz bu tilga va uning madaniyatiga moslashish uchun o'zimizning ona tilimiz tamoyillariga qo'shimchalar qo'shish va moslashtirishimiz kerak bo'ladi. Muloqot uchun til yoki til muloqot sifatida o'qitiladimi qanday maqsadda o'qitilishidan qat'iy nazar o'rganilayotgan tilni turli xil ijtimoiy hamda madaniy kontekstlarda samarali va mos ravishda qo'llay olish maqsadida olgan bilimlarimizni birlashtira olishimiz zarur hisoblanadi. Tildan muloqot uchun foydalanilganda, muloqot qatnashchilar odatda bir yoki undan ortiq til mahoratlarini bir paytning o'zida ishlatishadi: tinglash, gapirish, o'qish yoki yozish. Ular bir paytning o'zida bir mahoratdan ikkinchisiga tezgina o'ta olishadi masalan tinglashdan gapirishga va yana tinglashga kabi yoki ular bir vaqtning o'zida bir qancha mahoratlarni bajarishni taqazo etadiga topshiriq bilan band bo'lishlari mumkin masalan tinglab turib qisqa ma'lumotlar yozish kabilar. Tilning o'zaro muloqot jarayonida suhbatdoshlar tominidan ishlab chiqarilishi diskurs deb nomlanadi ya'ni foydalanishdagi til deyiladi. Cookning fikricha diskurs tahlili asosiy e'tiborni til mahoratlariga (tinglash, o'qish, gapirish, yozish) yo'naltirish muhimdir qachonki til foydalanuvchilar muvoffaqiyatli muloqotga erishishmoqchi bo'lishganda fonologik, grammatick va leksik bilimlarini birga jamlashlari muhimdir[3].

Diskurs nima?

Diskurs atamasiga qadimdan ikki xil tarif beriladi. Rasmiy tarifga ko'ra Diskurs bir va undan ortiq gaplardan tashkil topgan tilning ma'noli birligi sifatida tariflanadi. Funksional tarifda esa diskurs foydalanishdagi til sifatida tariflanadi. Alovida olib qaraganda, ikkala tarif ham diskurs uchun to'liq tarif emas. Diskurs eng kamida bir yoki ikki so'zdan tashkil topgan kontekstda ham mavjud bo'lishi mumkin masalan “stop” (“to'xta”) yoki “No smoking” (“chekish taqiqlanadi”) kabi. Yoki bo'lmasa, diskurs yuzlab va minglab so'zlardan tashkil topgan juda uzun romanlardan ham tashkil topishi mumkin. Odatda diskurs shunga o'xshagan ikki xil holatlarning qaysidir bir o'rnida paydo bo'ladi. “Gap” tushunchasi doim ham diskursga mos kelavermaydi ayniqsa og'zaki diskursni nazarda tutganimizda va xuddi shunday foydalanishdagi til (language in use) tushunchasi ham juda ham umumiylashadiki, deyarli ma'nosiz bo'lib qolishi mumkin. Bilamizki, til qanday elementlardan tashkil topgan va diskurs tinimsiz shu til elementlaridan foydalanadi degan fikga tayanamiz[4].

Diskurs uchun har ikkala jihatlarni ham o'zida jamlangan eng qoniqarli tarif shuki, diskurs bu so'zlashuv yoki yozma nutqning namunasi bo'lib, u shakl va ma'noning tavsiflanishi mumkin bo'lgan ichki munosabatlarga (masalan, so'zlar, strukturalar, uyg'unlik) va tashqi kommunikativ funksiya yoki maqsad va berilgan auditoriya/suhbatdoshga mos keladi. Bundan tashqari, tashqi funksiya yoki maqsadni faqat nutq qismi sodir bo'lgan kontekst va ishtirokchilar (ya'ni barcha tegishli vaziyat, ijtimoiy va madaniy omillar) hisobga olingan holdagina to'g'ri aniqlash mumkin. Tilning og'zaki va yozma shakllarida, o'zaro kommunikativ ta'sirda, kontekstda nutqni talqin qilish va ishlab chiqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi, shu sababdan til o'rgatishda zarur bo'lgan tamoyillar nutq ma'nosida muhim hisoblanadi.

Diskurs tahlili nima?

Diskurs tahlili gap chegaralaridan tashqarida qo'llaniladigan tilni minimal darajada o'rganishdir. 1960 – 1970 yillar davomida turli xil fanlarning e'tiborini torta boshladi. Bir payning o'zida kamida ikkita atama yon ishlatala boshlandi: **Matn lingvistikasi** (text linguistics) qaysiki bu soxa ko'proq turli xil sohalardagi va janrlardagi yozma matnlarga e'tibor qaratadi va **Diskurs tahlili** (discourse analysis) qaysiki bu sohada esa og'zaki va yozma shakldagi tildan foydalanish va aloqa almashinuviga ko'proq kognitiv va ijtimoiy nuqtai nazarni o'z ichiga oladi.

Garchi bugungi kunda diskurs tahlili aniq belgilangan fan deb hisoblash mumkin bo'lsada, u bir qator boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq va turli yondashuvlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tilshunoslik sohasida diskurs tahlili ikkita turli xil yo'nalishlarni egallaydi: ulardan biri Grammatik tahlilning funksional maqsadlarda kengayishi hisoblangs, ikkinchisi esa maxsus madaniy davrlar davomida tashkillashtirilgan tildan foydalanishni o'rganadi[5]. Dastlabki yo'nalish tabiatan nazariy hisoblanib, odatda ma'lum bir lingvistik tahlil maktablarga aloqador bo'lishi mumkin masalan, rasmiy tilshunoslik (Van Dijkning matn lingvistikasi nazariyasi) yoki tizimli tilshunoslik (Bhatianing janr tahlili nazariyasi). Ikkinci yo'nalish esa asosan tashkillashtirilgan kontekstlarda haqiqiy muloqotni tasvirlash bilan shug'ullanadi (m. shifokor-bemor suhbat, qonuniy shartnomalar). Umumiyl diskurs tahlili esa umuman kundalik sodir bo'ladigan suhbatlar, yozma shakldagi hikoya, roman kabi turli xildagi matnlarni qisqacha qilib aytganda og'zaki va yozma shakldagi barcha kontekstlar bilan shug'ullanadi.

Emi Luoning fikrlariga ko'ra Diskurs tahlili yozma yoki og'zaki tilni ijtimoiy kontekstga bog'liq holda o'rganish uchun tadqiqot usulidir. Bu tilning haqiqiy hayotiy vaziyatlarda qanday ishlatalishini tushunishga qaratilgan. Nutqni tahlil qilinganda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim[6]:

- Turli xil tillarning maqsadi va ta'sirlari
- Muloqotda madaniy qoidalar va urf odatlar
- Qadriyatlar, e'tiqodlar va taxminlar muloqotda qanday bildirilishi
- Tildan foydalanish uning ijtimoiy, siyosiy va tarixiy mazmuni bilan qanday bog'liq

Diskurs tahlili ko'plab gumanitar va ijtimoiy fanlar, jumladan tilshunoslik, sotsiologiya, antropologiya, psixologiya va madaniyatshunoslik fanlarida keng tarqalgan samarali tadqiqot usuli hisoblanadi. U tanqidiy nutq tahlili deb ham ataladi. Diskurs tahlilini o'tkazish tilning qanday ishslashini va turli xil ijtimoiy kontekstlarda ma'no qanday yaratilganligini tekshirishni anglatadi. Diskurs tahlili nafaqat yozma yoki og'zaki balki tilning har qanday misolida, shuningdek, ohang va imo-ishoralar kabi muloqotning og'zaki bo'lмаган jihatlarida ham qo'llanilishi mumkin.

Diskurs tahlilini quydagi turli xil manbalar ustida olib borish mumkin :

- Kitoblar, gazetalar va davriy nashrlar
- Broshyuralar va reklamalar kabi marketing materiallari
- Biznes va davlat hujjatlari
- Veb-saytlar, forumlar, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar va sharhlar
- Intervyu va suhbatlar

Ushbu turdag'i nutqlarni tahlil qilish orqali tadqiqotchilar ijtimoiy guruhlar va ular qanday muloqot qilishlari haqida tushunchaga ega bo'lishni maqsad qiladi. Faqat tildan foydalanish qoidalariga e'tibor qaratadigan lingvistik yondashuvlardan farqli o'laroq, nutq tahlili tilning kontekstual ma'nosiga urg'u beradi. Ushbu tahlil muloqotning ijtimoiy jihatlariga va odamlarning muayyan effektlarga erishish uchun tildan foydalanish usullariga (masalan, ishonchni mustahkamlash, shubha uyg'otish, his-tuyg'ularni uyg'otish yoki nizolarni boshqarish uchun) qaratilgan.

Diskurs turlari. Diskursni tasniflashda turli xil usullar mavjud. Bularidan biri yozma va og'zaki shakllar bo'lib og'zaki va yozma matnlarda o'rganilishiga ko'ra bo'linadi. Ushbu ikkala matn turlari ham yana ikki guruhga bo'linadi: *uslub* (rasmiy darajadagi) va *janr* (kommunikativ maqsad, tinglovchi, so'zlashish uslubi va shakli). Shuningdek, ba'zida diskurs keng tarzda *monologik* (qachonki so'zlovchi yoki yozuvchi butun bir diskursni hech qanday o'zaro muloqotsiz amalga oshirganda) va tabiatan *ko'p qismli* yoki *dialogik* (turli xil darajalarda bir yoki undan ortiq qatnashuvchilarning o'zaro aloqasi diskursni birga hosil qilganda) bo'lishi mumkin. Og'zaki va

yozma nutq o'rtasidagi farq *vosita* yoki *uslub* sifatida ifodalanadi chunki, har biri turli xil psixologik jarayonlarni taqazo qiladi[7]. Shunga qaramasdan, og'zaki tilga mo'ljallangan yozma til ko'rinishi bo'lishi ham mumkin (qaysiki dastlab og'zaki gapirilgan so'ngra yozma ko'rinishga o'tgan). Ushbu farqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni quydagil-jadvalda ko'rishingiz mumkin.

Jadval 1. Og'zaki savodxonlik uzlucksizligi		
Savodxonlik	Og'zaki	Yozma
Notiqlik	Og'zaki suhbat	m., norasmiy xatlar, drama, she'riyat
Madaniylik (o'qimishlilik)	Maruzalar, nasixat va nutqlar	m., tasviriy insho, maqolalar

Diskurs, shuningdek, *rejalashtirilgan* yoki *rejalashtirilmagan* bo'lishi ham mumkin[8] Rejalashtirilmagan diskurs ko`pchilik og'zaki suhbat turlarini va ba'zi bir yozma matnlarni ya'ni qisqa eslatmalar va norasmiy xatlarni o'z ichiga oladi.

Rejalashtirilgan diskurs og'zaki holda oldindan tayyorlangan pand-nasihat nutqlarni va katta e'tibor bilan bajarilgan yozma matnlarni o'z ichiga oladi. Diskurs turlari haqida bildirilgan fikrlar turli xil va turli jihatlardan yondashilgandir. Bildirilayotgan fikrning nutqda namoyon bo'lishi va qanday maqsadga yo'naltirilganligi bilan diskurs turlari ham o'zgara boshlaydi. Eng asosiy turlari sifatida uning og'zaki va yozma shakllarini oladigan bo'lsak, bu turlar ham o'z ichida maqsadi va ma'nosiga ko'ra boshqa sohalarga bo'linadi.

Xulosa. Ilmiy manbalarda kommunikatsiya jarayonida diskursning hosil bo'lishi va uning ushbu jarayonlarda turli xil vazifalarda kelishi atroflicha tahlil qilinib olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan. Shundan xulosa qilishimiz mumkinki, diskurs nutq jarayonida bildirilgan fikrning nutqda namoyon bo'lishi va qanday maqsadga yo'naltirilganligi bilan uning turlari ham o'zgara boradi. Bu kabi ilmiy izlanishlar va muammoga bo'lgan turlicha qarashlar diskurs va diskurs tahlilining inson muloqotida namoyon bo'lishi borasidagi masalalar tilshunoslikda yanada chuqurroq o'rganilishi lozim bo'lgan, tadqiqotga muhtoj qirralari mavjud ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Matthews, P.H. (2005). Oxford concise dictionary of linguistics. New York: Oxford University Press.
2. Marianna Celce-Murcia, Elite Olshtain (2000). Discourse and context in language teaching. Cambridge University Press
3. Cook G. (1989). Discourse. Oxford University Press
4. Schiffarin, D. (1994). Approaches to discourse. Oxford: Basil Blackwell
5. Bhatia, V.K. (1993). Analyzing genre: Language use in professional settings. London: Longman.
6. Emi Luo. Critical Discourse Analysis | Definition, Guide & Examples
<https://www.scribbr.com/methodology/discourse-analysis>
7. Hymes, D. (1967). Models of the interaction of language and social setting. Journal of Social issues, 23(2), 8-38.
8. Ochs, E. (1979). Planned and unplanned discourse. In T. Givon (Ed.), Syntax and semantics: Discourse and syntax (Vol. 12., pp. 51-80). New York: Academic Press.

UDC 82.0

THE NATURE OF MYTHOLOGY IN LITERATURE

M.U.Saidova, associate professor, Bukhara State University, Bukhara

M.B.Jamolova, master degree student, Bukhara State University, Bukhara

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilida mif va afsonaning umumiy va farqli tomonlar, mifologik afsonalardagi badiiylik va ularning o'ziga xos xususiyatlari, miflarning badiiy sathdagi holati va O'zbek mifologik tasavvurlar tizimida "alpomish" dostonidagi mifologik qarashlar haqida qarashlar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: mif, afsona ,doston, "Alpomish" dostoni, personaj, epos, motiv, totemistik e'tiqod.

Аннотация. В статье рассматриваются общие и различные аспекты мифов и легенд в узбекском языке, художественность мифологических сказаний и их специфические черты,